“T A S D I Q L A Y M A N”
TDYU huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyi direktorining Yoshlar ishlari bo‘yicha o‘rinbosari T. Akbaraliyev



27-oktabr 2026-yil

Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi M.S. Vosiqova nomidagi akademik litsey xodimlari o‘rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida 2026/2027 o‘quv yili uchun chora-tadbirlar rejasining 6-bandi ijrosini ta’minlash yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilish
BAYONNOMASI

2026-yil 27-oktabr **Toshkent shahri**

Qatnashdilar: TDYU huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyning yuristi **U.N.Ismoilov**, TDYU huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyning Yoshlar ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari **T.A.Akbaraliyev**, TDYU huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyning Kadrlar bo‘limi insprektori **N.S.Muxiddinov**, TDYU huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyning Yoshlar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i **F.X.Qosimova** hamda kafedra mudirlari va o‘qituvchilari

KUN TARTIBI:

Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litsey xodimlari o‘rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida 2026/2027 o‘quv yili uchun chora-tadbirlar rejasining 6-bandida belgilangan **o‘quvchilar o‘rtasida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan targ‘ibot ishlarini olib borish masalasi.**

ESHITILDI:

Kun tartibidagi korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsiyaviy holatlarning oldini olish hamda ta’lim muassasasida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish masalasi yuzasidan TDYU huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litsey yuristi Ismoilov Ulug‘bek so‘zga chiqdi.

U o‘z nutqida korrupsiya tushunchasi, korrupsiyaga oid jinoyatlarning mazmun-mohiyati, ularning asosiy ko‘rinishlari, sodir etilishiga sabab bo‘luvchi omillar hamda bunday huquqbuzarliklarning oldini olish choralari haqida tushuntirish berdi. Xususan, pora olish va berish, pora olish-berishda vositachilik qilish, mansab vakolatini suiiste’mol qilish hamda xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlar yo‘lida foydalanish kabi korrupsiyaviy holatlarning huquqiy oqibatlariga alohida to‘xtalib o‘tildi.

Shuningdek, akademik litseyda korrupsiyaning har qanday ko‘rinishiga nisbatan mutlaq murosasizlik siyosati amal qilishi ta’kidlandi. Har bir pedagog xodim va xodim o‘z xizmat vazifalarini bajarishda qonuniylik, halollik, xolislik va shaffoflik tamoyillariga qat’iy rioya etishi, korrupsiyaviy holatlarga yo‘l qo‘ymasligi hamda bunday holatlarning oldini olishda faol ishtirok etishi lozimligi qayd etildi.

Nutq davomida mazkur masalaga doir qonunchilik hujjatlari va idoraviy hujjatlar bilan ham tanishtirildi. Jumladan:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni;
2. Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining idoraviy hujjatlari;
3. Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha Toshkent davlat yuridik universitetining idoraviy hujjatlari;
4. Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyning korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha hisobotlari.

Mazkur hujjatlar korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari, tegishli tashkilot va muassasalarda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar hamda korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga qaratilgan faoliyat bilan tanishish maqsadida yig‘ilish ishtirokchilariga taqdim etildi.

Shuningdek, yig‘ilishda TDYU huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyning Yoshlar ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari To‘lqin Akbaraliyev ham so‘zga chiqdi.

U o‘z nutqida akademik litseyda korrupsiyaviy holatlarning oldini olish, bunday holatlarga duch kelinganda yoki ular haqida ma’lumotga ega bo‘linganda tegishli mas’ul tashkilotlarga xabar berish tartibi hamda mavjud murojaat kanallari haqida ma’lumot berdi. Jumladan, quyidagi murojaat kanallari eslatib o‘tildi:

Akademik litseyning Telegram-boti: https://t.me/tsul_litsey_murojaat_bot - korrupsiyaga oid holatlar yuzasidan, shu jumladan anonim tarzda murojaat qilish uchun;

TDYU Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limining telefon raqami: +998 71 233-42-09;

TDYU korrupsiyaga qarshi murojaatlar uchun Telegram-botlari: @tsul_anticorbot va @tsul_anonimbot.

Murojaat qiluvchining shaxsi va u tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar qat’iy maxfiy saqlanishi ta’kidlandi. Xodimlar korrupsiyaviy holatlarni yashirmaslik, ularga befarq bo‘lmaslik hamda aniqlangan holatlar yuzasidan o‘z vaqtida xabar berishlari zarurligi qayd etildi.

Shu bilan birga, akademik litsey pedagoglari va xodimlari yuqorida ko‘rsatilgan Telegram-botlar hamda telefon raqamlari bilan avval ham tanishtirilgan bo‘lsalar-da, korrupsiyaning oldini olish, xodimlarning xabardorligini yanada oshirish va mavjud murojaat kanallarini yodda saqlash maqsadida ushbu ma’lumotlar yana bir bor eslatib o‘tildi.

Yakunida korrupsiyaga qarshi kurashish faqat mas’ul tuzilmalarning emas, balki har bir xodimning ham vazifasi ekanligi, ta’lim muassasasida halollik, ochiqlik va qonuniylik muhitini ta’minlashda barcha xodimlarning mas’uliyati va faol ishtiroki muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlandi.

QAROR QILDI

1. TDYU huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litsey yuristi Ulug‘bek Ismoilov hamda Yoshlar ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari To‘lqin Akbaraliyev tomonidan berilgan axborotlar ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litsey xodimlari o‘rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida 2026/2027 o‘quv yili uchun chora-tadbirlar rejasining 6-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida o‘quvchilar o‘rtasida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan targ‘ibot-tushuntirish ishlari muntazam ravishda olib borilsin.
3. Akademik litsey pedagoglari va xodimlari tomonidan o‘quvchilarga korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning mazmun-mohiyati, ularning salbiy oqibatlari, korrupsiyaviy holatlarning oldini olish choralari hamda bunday holatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish zarurligi yuzasidan tushuntirish ishlari amalga oshirilsin.

Katta o‘qituvchi  **I. Ro‘zimurodova**